



FINLANDIYA TA’LIM MO’JIZASI – UZLUKSIZ TA’LIM MISOLIDA...

Muallif: Ne’matjonova Yulduz O’tkir qizi ¹

Affilyatsiya: O‘zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti Maktabgacha va boshlang‘ich ta’lim fakulteti decani, Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori PhD ¹

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.14511903>

Finlyandiya yaqinda nisbatan mustaqil davlatga aylandi, ammo ta’lim sohasida salmoqli muvaffaqiyatlarga erishdi, dunyodagi eng yaxshi tizimlardan birini yaratdi. Uning ta’lim tizimi turli mamlakatlardagi o‘qituvchilar orasida haqiqiy qiziqish uyg‘otadi, mutaxassislar tomonidan muhokama qilinadi va aholining hayratlanishiga sabab bo‘ladi.

Mutaxassislar fikriga ko‘ra, dunyoning eng yaxshi ta’lim tizimi Finlandiyada ekan. Finlandiya Yevropaning rivojlangan mamlakatlaridan biri hisoblanadi. Xo‘sh, dunyoda eng yaxshi hisoblanadigan Finlandiya ta’lim tizimi, boshqalardan nimasi bilan ajralib turadi? Finlandiyada nufuzli yoki oddiy maktab tushunchasi yo‘q. Hamma maktab davlatga tegishli bo‘lib, ular bir xil moliyalanadi va bir xil asbob-uskuna va imkoniyatlarga ega;

- Kichik sinflarda bolalarga uy vazifasi berilmaydi, imtihon topshirmaydi va ularga baho qo‘yilmaydi;

- Fin maktablarida bolalar juda ko‘p insho yozadi: mustaqil ishlash bolaga har bir masala haqida o‘z fikriga ega bo‘lishni va fikrini badiiy tilda izohlashni o‘rgatadi;

- Bir fanni boshqa fanlar o‘rnida chuqurroq o‘rganish ma‘qullanmaydi. Masalan finlar matematikani san‘atdan ko‘ra chuqurroq o‘rganish kerak deb hisoblamaydi;

- Bir o‘quvchini boshqa o‘quvchi bilan qiyoslash ta‘qiqlangan. Nogiron va qobiliyatlari bolalar bir sinfdan o‘qishadi;

- Fin maktablari shiori shunday: “Biz bolani yo hayotga tayyorlaymiz, yo – imtihonga. Biz birinchisini tanladik”. Shuning uchun ham fin maktablarida faqat bir marta – o‘quvchi 16 yoshga to‘lganda imtihon topshiriladi;

- Fin maktablarida eng asosiysi — o‘quvchini mustaqil hayotga tayyorlashi, deb hisoblanadi. Shuning uchun ham ularga mustaqil bilim olishni o‘rgatishadi. Bolalar yodlab olingan formulalar o‘rniga, spravochnik, kalkulyator va internetdan foydalanishni o‘rganadi; O‘qituvchilar bir kunda sinf xonasida 4 soat dars beradi va haftaga 2 soat o‘qituvchi malaka oshirishiga sarflanadi;

- Finlandiyada “o‘qituvchi” kasbi – obro‘li kasb hisoblanadi. Oliy ta’lim maskanlarida o‘qituvchi bo‘lib ishlashga juda katta konkurs mavjud;

- Finlandiyada umumiy o‘rta ta’lim – bepul. Buning ichiga bepul tushlik, ekskursiya, maktab avtobuslari va kitoblar kiradi. Ota-onalardan pul yig‘ish ta‘qiqlangan;

Finlandiyada til o‘qituvchisi lavozimidagi shaxs fin tili bilan bir qatordafransuz, nemis va ingliz tilida dars berish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Shu bilan bir qatorda, Finlandiyada o‘qituvchilar uch hamkorlik dasturi asosida ish yuritadi;

- Fan bo'yicha kafedrada muzokaralar o'tkazadi, bilimlarini mustahkamlaydi.
- Maxsus o'qituvchi tayyorlash kafedrasida o'qiydi.
- Universitetning o'zining shaxsiy maktabi bo'lib, o'qituvchilar malaka oshirishga yuboriladi.

Maktab o'qituvchilari yilda 3 marotaba malaka oshirishadi.

Finlandiyada maktablar 1948 – yildan boshlab bepul qilingan, ushbu davrgacha maktablar to'lov asosida o'qitilgan. Maktab bilan bir qatorda universitetlar ham ushbu yildan boshlab 18 yoshdan oshgan fin fuqarolari uchun bepul deb e'lon qilindi. Aynan shu yildan boshlab maktablarning bepulligidan tashqari bepul ovqatlantirish tizimini ham joriy etgan, chunki mamlakatda kambag'allik bo'lgan. Boshqa davlat ta'lim dasturlaridan ajralib turadigan yana bir jihati o'qituvchilar avtonom, ular tekshirilmaydi hamda nazorat qilinmaydi.

3 tabaqali yordam dasturi: Maktab ichidagi bolalarga yordam bosqichlari

Maxsus yordam

Tezlashtirilgan yordam

Farqlarni o'rganadi

O'qituvchi va talaba, o'quvchi o'rtasida muloqot demokratiya bo'lib, o'qituvchiga sen deb murojaat qiladi. Bundan tashqari, maktablar 9 oylikdan 7 oylikkacha davom etadi.


Maktablar o'rtasidagi tenglik. Bu shuni anglatadiki, agar institutlar davlat turiga kirsa, unda hammasi bir xilda homiylik qilinadi va “boy” va “kambag'al” tashkilotlarga sinflar bo'linmaydi. Finlyandiyada bir muddatgacha ota-onalarga farzand uchun muassasa tanlashni taqiqlovchi qonun mavjud edi. Uni eng yaqin yashash joyiga berish kerak edi. Yaqinda bu ta'qiqalar bekor qilindi, lekin ko'pchilik ota-onalar o'z farzandlarini maktabga yaqinlashtirmoqda, chunki ular qulayroq bo'lgani uchun va ta'lim darajasi shaharning boshqa uchidan farq qilmaydi. Bu xususiy maktablar yo'qligini anglatmaydi, lekin ular ko'pincha talab qilinmaydi. Ular har qanday ixtisoslikda ongli ravishda tilga olinadigan, lingvistik yoki matematik bo'ladigan bolalar tomonidan talab etiladi.

Ota-onalar o'rtasidagi tenglik. Barcha ta'lim muassasalarida bolaning ota-onasining ish joyini aniqlashga imkon beradigan barcha savolnomalar va dasturlar qat'iyon taqiqlanadi. Ushbu qo'llanma oxir-oqibatda, talabaga birinchi o'ringa beriladi¹.

Finlyandiyadagi maktablarning to'qson foizdan ko'prog'ini hukumat moliyalagan. Ushbu maktablarning barchasi STEMni taklif qilgan va majburiy asosiy ta'limdan boshlangan. Ammo, agar oldinga borishni istagan o'quvchi yoki talaba bo'lsa, u yuqori o'rta maktab darajasidan boshlaydi. STEM o'quv dasturlari universitetlarda va professional yo'naltirilgan politexnika fanlarida ham mavjud. Hamma uchun STEMni o'rganish imkoniyati mavjud. Hatto kattalar ta'limi dasturida STEMni o'rganish mumkin.

¹ Alisher Anvarov. Finlandiya ta'lim tizimining asosiy afzalliklari va kamchiliklari. Hidoya.uz

Maktablar



- Ko'zi ojizlar maktabi
- Eshitishi va harakatida nuqsoni borlar maktabi

Maktab ta'lim dasturini tamomlagach o'quvchilar kollej yoki litseyga o'qishga kirish uchun imtixon topshirishadi.

2001 yil PISA testlarining natijalari e'lon qilinganida finlandiyaliklar o'zlarining ta'lim tizimi butun dunyodagi eng yaxshisi bo'lib chiqqanini bilishgach, rosa hayron bo'lishgan. Amaldagi qisqa o'quv kunlari, kamroq, hajmdagi uy vazifalari, standart testlarning minimum shakllari kabi bir muncha yengil yondashuv orqali qanday qilib a'lo natijalarga erishish mumkinligi ta'lim shaklidagi an'anaviy tasavvurlarni biroz chetlab o'tdi.

Maktab darslari fin yoki shved tillarida o'tiladi. Davlat maktablari bilan birga xususiy maktablar ham bor. 1968-yil qonuniga binoan, yagona umumiy ta'lim tizimiga o'tish 1980-yilda nihoyasiga yetkazildi. Majburiy ta'lim – 9 yillik. Majburiy maktab negizida 3 yillik katta o'rta maktab tashkil etilgan. Davlat, munitsipal va xususiy hunar bilim yurtlari va maktablarida quyi xunar-texnika ta'limi, texnika, pedagog, tijorat institutlarida o'rta maxsus ta'lim beriladi. 22 oliy o'quv yurti, shu jumladan, 11 universitet bor. Yiriklari: Helsinki universiteti (1640), Tampere'dagi universitet, Turkudagi Shved universiteti (Abo Akademiya), Tampere, Xelsinki va Lappenranta shaharlaridagi texnika universitetlari. Oliy tijorat maktablari va boshqa mavjud. Bundan tashqari, bir qancha maxsus oliy o'quv yurtlari: Ya. Sibelius nomidagi musiqa akademiyasi, 4 ta chet tillar instituti va boshqa bor. Finlandiyada jami 400 ta ilmiy tadqiqot muassasasi va jamiyat bo'lib, shundan 40 tasi, jumladan, texnika tadqiqotlari markazi (1942), qishloq xo'jaligi ilmiy tadqiqot markazi (1898), sellyuloza qog'oz sanoati markaziy laboratoriya, o'rmon genetikasi (1968) va o'rmon muhofazasi (1972) ilmiy tadqiqot institutlari davlatga qarashli. Oliy o'quv yurtlari huzurida 50 dan ortiq ilmiy tadqiqot instituti va laboratoriya bor.

Mamlakatda faqat Yuvaskula universitetida jismoniy tarbiya fakulteti mavjud bo'lib, bundan tashqari 6 ta yo'nalishni ham qamrab olgan.

- Gumanitar va sotsiologiya fanlari
- Informatsion texnologiyalar
- Pedagogika
- Jismoniy tarbiya
- Matematika
- Iqtisodiyot

Finlandiya universitetlarida dars yakunida talabalarga ssilka yuboriladi va ular o'qituvchi darsiga izoh beradi. Yilda 2 marotaba kafedra mudiri va o'qituvchilar o'rtasida suhbat bo'lib o'tadi va unda sharhlar e'tiborga olinadi.

Talaba bilan doimo hamkorlikda ishlaydigan lavozimlar

- Ijtimoiy ish xodimi
- Hamshira
- Psixolog

Finlandiya universitetlarida dars taqsimoti quyidagilardan iborat:

M'ruza mashg'uloti 300 soat

Asistentga 450 soat

Professor 120 soat

Universitetdagi kafedra mudiri majburiyatlari

Dars taqsimoti

Ishga olish

Ishdan bo'shatish

Maxsus guruhlar bilan ishlash

Ma'lumki, Finlandiya Yevropa shimolida joylashgan kichik mamlakat. Katta tabiiy boyliklar, savdo imtiyozlari yoki boshqa sezilarli daromad manbaalariga ega emas. 20-asr boshlarida Finlandiya Yevropaning eng qashshoq mamlakatlaridan biri bo'lgan. O'sha yillarda minglab finlar AQSh, Angliya, Germaniya va Fransiyaga borib oddiy ishchi sifatida (mehnat migranti) ishlagan. O'sha vaqtlarda amerikada uy xizmatchisini "finka" deb atashgan. Bugungi kunda esa, Finlandiya dunyoning nufuzli tahliliy markazlar fikriga ko'ra, "Dunyoning eng yaxshi mamlakati", "Erkaklar va ayollar huquqlari teng mamlakat", "Dunyoning eng stabil mamlakati", "Dunyoning eng xavfsiz mamlakati", "Dunyoning eng qulay mamlakati" degan nomlariga sazovor bo'lgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

Alisher Anvarov. Finlandiya ta'lim tizimining asosiy afzalliklari va kamchiliklari.

Hidoya.uz

Abdurahim Nosirov Abdumatalivich. Erkinlik, quvnoqlik va ishonchga asoslangan ta'lim. Ma'rifat. N 9. 2024

Ari Pokka. Top class: Finnish school Leadership and Management. Jyvaskyla.2015

Petri Lounaskorpi. 2023. Teach like a Finn: Less workload, more results. Manual book. 2023.

Timoti Uoker. Finlandiya ta'lim mo'jizasi. –Toshkent: "Global books", 2023. 272 bet.

<https://uz.wikipedia.org/wiki/Finlandiya>